

Investitsiya dasturi ijrosi: 283,2 mln dollar xorijiy investitsiya o'zlashtirildi.

// 21 July 2026 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/sarhisob20260721>

2026-yilning birinchi yarim yilligida "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tomonidan Investitsiya dasturi doirasida belgilangan vazifalarning izchil ijrosi ta'minlanib, tarmoqni modernizatsiya qilish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish borasida salmoqli natijalarga erishildi. 2026-yilning birinchi yarim yilligida "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tomonidan Investitsiya dasturi doirasida belgilangan vazifalarning izchil ijrosi ta'minlanib, tarmoqni modernizatsiya qilish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish borasida salmoqli natijalarga erishildi.



Hisobot davrida jami **283,2 mln AQSH dollari** miqdorida xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilib, belgilangan reja **105 foizga** bajarildi. Shundan **278,2 mln dollari** to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga, **5 mln dollari** esa davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobiga to'g'ri keldi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida joriy yilning birinchi yarim yilligida umumiy qiymati **14,9 mln AQSH dollari** bo'lgan **3 ta yangi loyiha** foydalanishga topshirildi.

Mazkur loyihalar doirasida yillik **177 mlrd so'mlik mahsulot ishlab chiqarish quvvatlari** yaratildi hamda **147 ta yangi ish o'rne**ni tashkil etildi. Bu esa tarmoqning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, shuningdek, aholi bandligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.